

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 2510,8 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 45,9 ming kishiga yoki 1,9 %ga o'sgan.


**E'tibor bering:**  
**2018 yil yanvar-dekabr**

- Aholi soni **45,9 ming kishiga** ko'paydi.
- **Tirik tug'ilganlar** soni **46,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **15,7 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **18,9 mingta nikoh** va **3,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.


## Toshkent shahar aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-dekabr)



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, shahar jami aholisiga nisbatan, %da)




Shahar hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Olmazor tumanida 359,4 ming kishini (shahar aholisi sonidagi ulushi 14,3 %ni) va Shayxontoxur tumanida 337,8 ming kishini (13,4 %), aksincha eng kam aholi soni Bektemir tumanida 34,3 ming kishini (1,3 %) va Yakkasaroy tumanida 118,7 ming kishi (4,8 %) tashkil etdi.



Tumanlar kesimida doimiy aholi soni  
(2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishida)




**Toshkent shahar aholi soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 2510,8 ming kishi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 1,9 foizga ko'paydi.**



Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Bektemir tumanida 3,9 %ga, Sergeli tumanida 3,2 %ga, Shayxontohur tumanida 2,3 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Yakkasaroy tumanida 1,0 % ni hamda Uchtepa tumanida 1,2 %ni tashkil etdi.

### Toshkent shahri aholi sonining jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishida)



#### Ma'lumot uchun

**Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Toshkent shahri bo'yicha ayollar soni 1285,2 ming kishi. Erkaklar soni esa 1225,6 ming kishini tashkil qildi. Ko'rsatkichlardan shuni kuzatishimiz mumkinki, ayollar soni 2.4% ga erkaklar sonidan ko'proq.**

	Doimiy aholi soni (ming kishi)	shundan:			
		erkak (ming kishi)	ayol (ming kishi)	erkak (foizda)	ayol (foizda)
<b>Toshkent shahar</b>	<b>2 510,8</b>	<b>1 225,6</b>	<b>1 285,2</b>	<b>48,8</b>	<b>51,2</b>
tumanlar:					
Uchtepa	265,8	131,3	134,5	49,4	50,6
Bektemir	34,3	16,2	18,1	47,2	52,8
Yunusobod	330,8	159,7	171,1	48,3	51,7
Mirzo Ulug'bek	271,0	134,5	136,5	49,6	50,4
Mirobod	136,3	66,1	70,2	48,5	51,5
Shayxontoxur	337,8	165,6	172,2	49,0	51,0
Olmazor	359,4	173,8	185,6	48,4	51,6
Sirg'ali	181,5	87,2	94,3	48,0	52,0
Yakkasaroy	118,7	57,9	60,8	48,8	51,2
Yashnobod	231,0	112,9	118,1	48,9	51,1
Chilonzor	244,2	120,4	123,8	49,3	50,7

## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 46,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,6 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega ko'paygan (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 17,7 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Mirobod tumanida (14,9 promilledan 16,2 promillega) Sergeli (21,2 promilledan 22,5 promillega) Mirzo Ulug'bek tumanida (14,1 promilledan 14,9 promillega) tumanlarida sezilarli o'sganligi kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




**Qiz bolalar:**  
22,5  
ming nafar





**O'g'il bo-  
lalar:**  
23,8  
ming nafar

### Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-dekabr

	2017y.	2018y.	O'sish surati foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>43 150</b>	<b>46 281</b>	<b>107,3</b>
tumanlar:			
Uchtepa	5 288	5 704	107,9
Bektemir	784	886	113,0
Yunusobod	5 711	6 077	106,4
Mirzo Ulug'bek	3 745	4 003	106,9
Mirobod	1 985	2 192	110,4
Shayxontoxur	6 227	6 611	106,2
Olmazor	6 678	7 186	107,6
Sirg'ali	3 681	4 013	109,0
Yakkasaroy	1 475	1 574	106,7
Yashnobod	3 772	3 993	105,9
Chilonzor	3 804	4 042	106,3



## Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-dekabr



## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 15,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 6,3 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 6,7 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Sergeli (7,8 promilledan 7,1 promillega), Yunusobod (6,7 promilledan 6,1 promillega), Olmazor (6,1 promilledan 5,5 promillega), Yashnobod (8,4 promilledan 7,9 promillega) va (5,6 promilledan 5,1 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
8,2 ming  
kishi


**Ayollar:**  
7,5 ming  
kishi

### Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni, kishi yanvar-dekabr


	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>16 361</b>	<b>15 755</b>	<b>96,3</b>
tumanlar:			
Uchtepa	1 754	1 755	100,1
Bektemir	244	249	102,0
Yunusobod	2 145	1 997	93,1
Mirzo Ulug'bek	1968	1930	98,1
Mirobod	1 028	1 028	100,0
Shayxontoxur	1 599	1 546	96,7
Olmazor	2 122	1 959	92,3
Sirg'ali	1359	1266	93,2
Yakkasaroy	651	606	93,1
Yashnobod	1 881	1 808	96,1
Chilonzor	1 610	1 611	100,1

## Demografik holat

### Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni, kishi yanvar-dekabr




### Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish surati (foizda)



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,8 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 14,3 %i o'simtalardan, 5,0 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,5 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,9 %i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 7,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,6 ming nafarni tashkil etib, ularning 59,5 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 18,8 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 10,8 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,0 %i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan va 5,7 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2018 yil yanvar-dekabr

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 30,6 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 3,7 ming kishiga (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 26,8 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
30,6 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 18,9 ming nikohlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,2 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori oshish sur'atlari Mirobod (104,6%), Uchtepa (103,1%), Olmazor (102,2%), tumanlarda tog'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,7 promilleni tashkil etdi.



Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Sergili (130,7%), Mirobodi (125,1%), Uchtepa (122,7%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-dekabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish surati foizda	2017 y.	2018 y.	O'sish surati foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>19 147</b>	<b>18 904</b>	<b>98,7</b>	<b>3 571</b>	<b>3 927</b>	<b>110,0</b>
tumanlar:						
Uchtepa	2 162	2228	103,1	331	406	122,7
Bektemir	395	371	93,9	80	82	102,5
Yunusobod	2 552	2509	98,3	493	509	103,2
Mirzo Ulug'bek	1 877	1632	86,9	421	435	103,3
Mirobod	895	936	104,6	207	259	125,1
Shayxontoxur	2 567	2562	99,8	383	365	95,3
Olmazor	2 538	2594	102,2	412	450	109,2
Sirg'ali	1 790	1792	100,1	335	438	130,7
Yakkasaroy	749	725	96,8	171	160	93,6
Yashnobod	1 799	1755	97,6	397	429	108,1
Chilonzor	1 823	1800	98,7	341	394	115,5

## Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik  
(yanvar-dekabr)



## Demografik holat


**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahar bo'yicha ko'chib kelganlar soni 24,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 10,2 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini 15,3 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida 14,0 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	24,6	25,5
Ko'chib ketganlar	10,6	10,2
Migratsiya saldosini	14,0	15,3



### Toshkent shahri tumanlar kesimida aholi migratsiyasi (1000 aholiga nisbatan)



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yashnobod (2,2 ming kishi), Chilonzor (2,0 ming kishi), Sergeli (2,0 ming kishi) hamda Shayxontoxur va Mirzo Ulug'bek tumanlarida (1,7 ming kishi) qayd etildi.

Toshkent shahar statistika boshqirmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: O.Abduraxmanov  
(71) 230-88-22